



ALISHER NAVOIY NOMIDIDA
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
O'ZBEK TILI VA O'RTA MAXSUS
TAYLIM VAZIRLIGI



O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TAYLIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

"Muhammad Rizo Ogahiyning o'zbek mumtoz
adabiyotida tutgan o'rni" mavzusidagi
Respublika ilmiy-nazariy anjumani

Nafosat O'ROQOVA

SERTTIKAT

Rektor:



SH. SIROJIDDINOV

20.05.2020.



ALSHAYKH NAVOIY NOMIDAGI
TOSHIKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O'QITMA KATTAQISI
TALIM VAZIRLIGI



O'ZBEKISTON
YOZUVCHILAR UYUSHMASI



Muhammad Rizo Ogahiyning o'zbek mumtoz adabiyoti rivojida tutgan o'rni

marzuidagi Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari

Toshkent, 2020-yil 20-may

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus
ta'lim vazirligi**

**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek
tili va adabiyoti universiteti**

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi

**«MUHAMMAD RIZO OGHIYNING O'ZBEK
MUMTOZ ADABIYOTI RIVOJIDA TUTGAN O'RNI»**

**mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy anjuman
materiallari**

Toshkent - 2020

1

УЎК 821.512.153(092)

КБК 84

Ogahiy.

Muhammad Rizo Ogahiyning o'zbek mumtoz adabiyoti rivojida tutgan o'rni [Matn]: – Toshkent: Navoiy universiteti nashriyot matbaa uyi, 2020. – 265 b.

Ushbu to'plamda "Muhammad Rizo Ogahiyning o'zbek mumtoz adabiyoti rivojida tutgan o'rni" mavzuidagi respublika ilmiy-nazariy anjumaniga yuborilgan ilmiy maqolalar jamlangan. To'plamda Muhammad Rizo Ogahiyning adabiy-ilmiy merosining mumtoz adabiyotimizdagi o'rni va bugungi ahamiyati, shuningdek, shoir ijodiga bog'liq holda matnshunoslik masalalari, tilshunoslik muammolari haqida so'z yuritiladi. Ogahiy ijodiy merosini o'rganishning bugungi holati va istiqboli borasida muayyan tasavvur berishi uning ahamiyatini belgilaydigan omillardan biridir. Kitob filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistr va bakalavr talabalar hamda keng o'quvchilar ommasiga mo'ljallangan.

Mualliflar qarashlari va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

Mas'ul muharrir:

Shuhrat Sirojiddinov,
filologiya fanlari doktori, professor

Tahrir hay'ati

Shuhrat Sirojiddinov, Ibrohim Haqqulov, Sirojiddin Sayyid, Nurboy Jabborov, Nafas Shodmonov, Abdulla O'rozboyev, Gulnoz Xalliyeva, Iqboloy Adizova, Karomat Mullaxo'jayeva, Dilnavoz Yusupova, Akromjon Dehqonov, Qo'ldosh Pardayev, Tozagul Matyoqubova, Ozoda Tojiboyeva, Orzigul Hamroyeva.

O'zbek adabiyoti tarixi va folklor kafedrasining 2020-yil 13-may 19-sonli bayonnomasi bilan nashrga tavsiya etilgan.

MUNDARIJA

OGAHY SHE'RIYATINI O'RGANISH MUAMMOLARI

HAQQULOV Ibrohim. Haqiqat va abadiyat.....	3
JUMAXO'JA Nusratullo. G'azalda faqru fano talqini.....	11
ADIZOVA Iqboloy. "Ustina" radifli g'azal takomili tarixi.....	17
O'RAYEVA Darmonoy. JALILOVA Zarnigor. Ogahiy she'riyatida ma'shuqa go'zalligining gullar vositasida ifodalanishi.....	24
YUSUPOVA Dilnavoz. Ogahiy taxmislari.....	29
AHMEDOVA Shoir. TESHAYEVA G. Ogahiy ruboiylarida tabiat tasviri.....	34
QUVVATOVA Dilrabo, SOHILOVA Zarnigor. Ogahiy ijodida bahor tasviri.....	38
G'AYIPOV Dilshod. Ogahiy she'riyatidagi shohbaytlar haqida.....	43
MULLAXO'JAYEVA Karomat. Dardangiz devon sohibi.....	49
BEKOVA Nazzora. Bir musamman tahlili.....	53
NURIDDINOV Shahobiddin. Ogahiy g'azallariga komil muxammaslari.....	60
RAJABOVA Ma'rifat. Navoiy va Ogahiy ijodida mifologik obrazlar tasviridagi mushtarakliklar.....	66
TILAVOV Abdumurod. Ogahiy ruboiylarida olam va odam talqini.....	70
SABITOVA Tojixon. Ogahiy ijodida Navro'z madhi.....	73
MATYOQUBOVA Tozagul. Ogahiy lirikasida pari obrazining poetik tasviri.....	76
AMONOVA Zilola. Ogahiyning Nasimiyga tatabbu'si.....	82
ASHUROVA Gulbahor. "Xazon yetkan nishonidur qirov gar tushsa bog' uzra...".....	88
MAHMUDOV Jasurbek. UMAROVA Sohiba. Ogahiy va Tabibiy tahmidlari to'g'risida.....	92
AMONOV Shermuhammad. "Hayratu-l-ushshoq" devonidagi Ogahiy g'azallariga yozilgan muxammaslar haqida.....	96
QUVVATOVA Dilrabo, O'ROQOVA Nafosat. Komil Avaz ijodida Ogahiy obrazi talqini.....	102
TOJIBOYEVA Ozoda. Ogahiy she'riyatida an'ana va o'ziga xoslik.....	107
KARIMOV Islombek. Ishq-muhabbat mavzusi Ogahiy nigohida.....	111
RAHMONOVA Shahnoza. Ogahiyning mustazod yaratishdagi mahorati.....	115
KAZAKBAYEVA Dilrabo. Muhammadrizo Ogahiyning "Aziz jong'a" tarji'bandi xususida.....	120

KOMIL AVAZ IJODIDA OGAHIY OBRAZI TALQINI

Dilrabo QUVVATOVA

filologiya fanlari doktori, professor

Nafosat O'ROQOVA

filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori

BuxDU

Sharqona madaniyat, ulug'vor ma'naviyat, san'at, adabiyot, va hatto, yozuv ham jahon miqyosida juda qadimiydir. Asrlar davomida sayqallashib kelayotgan ma'naviy va madaniy mulkka vorisligimiz dilda cheksiz faxr tuyg'usini uyg'otadi. Ko'hna Xorazm farzandi, shoir Komil Avaz ijodida ana shu vorislik hissi sezilib turadi. Uning she'rdan tortib dostongacha, hikoyadan romangacha, maktubdan essegacha bo'lgan janrlardagi asarlarida ko'hna tarix, ajdodlar ibrati, bugunning sabog'i aks etgan. Uning M.R.Ogahiy tavalludining 200 yilligiga bag'ishlangan "Ogahiy" nomli musiqiy dostoni shu jihatdan e'tiborli. Binobarin, mazkur asar A.Navoiyning "Layli va Majnun", Uyg'un va I.Sultonning "Alisher Navoiy", R.Otatonov, R.Ollaberganovlarning "Oshiq G'arib va Shohsanam", dramaturgning o'z qalamiga mansub "Feruz" kabi mashhur asarlar qatorida "Ogahiy" nomli teatrdan sahnalashtirilib, olqishlarga sazovor bo'ldi. Biografik xarakterdagi dostonida Ogahiyning hayot yo'li o'z tilidan hikoya qilinadi. Bu xususiyat uning liro-epiklik xususiyatini belgilab beradi.

K.Avaz "Ogahiy" musiqiy dostoni kompozitsiyasiga qahramon xarakterini, ruhiy olamini ochib berish uchun Ogahiyning bir necha mumtoz g'azallari va ulardan ayrim baytlarnisingdirgan. Shu jarayonda shoirning g'azallari kuylanadi. Ya'ni musiqa ohangida Ogahiyning qalb izhorlari, kechinmalari ifoda etiladi. Bu asar, aslida, dostonning yangi janr ko'rinishi bo'lib, mohiyatan musiqali dramalarni yodga soladi. Dostonida xronologik vaqt va zamon muhim xususiyat sanaladi. Shoir o'zi yaratgan kuylar ohangida hayotini so'zlab beradi.

Asarning: "Ogahiyning uyi. Shamchiroq yog'dusida shoir yolg'iz o'z xayollari bilan band. Tanbur ijrosidagi «Tani maqomi segoh» kuyi bilan Ogahiyning «Yolg'uz» g'azali olisidan eshitilmoqda.

*Agar bu ersa yolg'uzliq g'amikim man chekibdurman,
Ilohi bo'lmasun olam aro kufr ahli ham yolg'uz" [1, 83].*

- deya boshlanishi kitobxon ko'z o'ngida go'yo sahna asariday gavdalana boshlaydi. G'azal misralarida shoirning kufr ahli, ya'ni hatto kofirlarga ham

yolg'izlikni ravo ko'rmasligi ajib bir mahzun holatni paydo qiladi. Bu hissiyot qahramonimizga-da begona emasligi sekin-asta ayonlasha boradi.

Hazrat Alisher Navoiy "Mahbub-ul qulub" asari debochasida o'z umrining oltmish yilligini sarhisob qilganidek, ulug' shoir Ogahiyda ham bu an'ana davomiyligini kuzatamiz:

*Oltmish uchdan o'tdi yoshim, vodarig',
Sarhisobga chorlar shuur tunu kun.
Yorug'lig'ing faqirdan tutmag'il darig',
Pajmurdayi ahvoldadurman bugun [1, 83].*

Binobarin, yashagan umri uchun o'z-o'zini so'roqqa tutish, bajargan jami a'mollarini taftish qilish faqat qalbi buyuklargagina xos. Ular bu ishni adolatli hal qila oladilar.

Asarning syujet liniyasi Ogahiyning yoshlik chog'larini yodga olishi bilan tarmoqlanib ketadi. Otasi Erniyozbek mirob bo'lganligi, undan uch yoshda ajralib, amakisi Munisning qo'lida tarbiya topganligi va bundan keyingi hayoti voqealari epiklik kasb etadi. Shoirning o'y-fikrlari, qalb kechinmalari, iztiroblari tizmasida esa lirizm elementlari yaqqol seziladi.

Musiqiy dostonida Ogahiyning amakisi shoir Munisga nisbatan o'zgacha muhabbat bilan qaragani; ahli ulamo, ahli fuzalo, ahli shuaro orasida hurmat va e'zozda bo'lganligi zo'r ishtiyoq bilan o'z tilidan bayon qilinadi:

*Ustim but, mehrga moylangan nonim,
Vakim, ilk ustodim, amakim – jonim [1, 84].*

Shoir shu o'rinda yoshlikda egallangan ilmni qadrlaydi. Uni "umrning lazzati", "donishlik, martaba izzati", "tafakkur maxzanin yoritguvchi nur" deya aniq tashbehlaydi. Ilmga nisbatan iqror bevosita kitobxonni jalb qiladi:

*Olooh bermish ilm nurin odamg'a,
Ilm yoymish yurt dovrug'in olamga.
Al-Xorazmiy, al-Beruniyga ta'lim
Bergan azim muqaddas el, zamin bu,
Ilmdan taraqqiy etmish zamon bu [1, 84].*

Shoir ulug' donishmandlar Y.X.Hojib, M.Qoshg'ariy, A.Navoiy asarlaridagi kabi ilmning Haq va haqiqat sari eltuvchi yagona yo'l ekanligi e'tirofi bizni yana

bir bor hushyorlikka chaqiradi. Bilim egallashga, yoshlik kuchini faqat ma'rifatga, ziyoga sarflashga da'vat bu chaqiriqning hech qachon eskirmasligidan darak beradi. Bugungi globallashuv davrining ham mazmun-mohiyati, talabi shu:

*Ilm oling, ilm oling, ey baxtli avlod,
Shundan bo'lg'usidir bu ma'vo obod [1, 84].*

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, musiqiy dostonida bir qancha janriy yangilanishlar ko'zga tashlanadi: "Musika jarangdor yangrab, pasayadi. Tubandagi misralar rechitativ uslubda aytilmog'i mumkin". She'riy parchalar orasida kelgan bu kabi kiritmalarda tilga olingan rechitativ uslub oddiy o'quvchiga notanish, albatta. Doston muallifi buni quyidagicha ta'riflaydi: "Rechitativ – ba'zi bir muzika asarlarining, asosan, operalarning muhim bir qismi – kuy bilan yoki qisqa ohangda aytiladigan so'zlari".

Darhaqiqat, musika ohanglarining turli tovlanishlarda berilishi asar qahramonining ko'ngil kechinmalarini, ruhiy po'rtanalarini ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dostonida yosh shoirning ilk ash'or bitgani, hayajonli, shavqli kunlari, amakisi Munis Xorazmiyga ko'rsatishga iymonib, uyalib, va nihoyat, jur'at topganligi lavhalari o'ziga xos pafos bilan tasvirlangan. Unda shoir amakisining jiyani bitganlariga ijobiy javob qaytargani asar ruhini bir pog'ona yuqori ko'targan:

*"Aling xo'b galishib qolibdi bolam,
Ko'p o'qi, ko'p mashq etgin.
Inshoolloh, shoir bo'luv salohiyat,
Ko'rinib turibdi, to'xtatma zinhor,
Rushd osorilig' bor g'azallaringda,
Ruhingni tushirma qo'l kelmay qolgan
Mahallaringda.
Oq yo'l tiladi, taxallusim Ogahiy aylab [1, 84-85].*

Komil Avazning boshqa asarlarida kuzatiladigan sheva so'zlarini matnga keng jalb etish uslubi "Ogahiy" dostonida ham tez-tez ko'zga tashlanadi. Zamon va makon talabi, qolaversa, qahramonning ruhiy holatini aniq bayon qilish nuqtai nazaridan ham bu uslub o'zini oqlaydi. San'atshunos M.Isokova bilan bo'lgan suhbatda shoirning: «To'g'ri, shevachilik meni asarlarimda ko'p

uchraydigan nuqson uning adabiy tilga o'girib bo'lmaydigan shunday bir ajoyib nozik jihatlari bor. Masalan; «Jobbi jo'jakning hiylasi» komediyasidagi o'ziga xos Xorazm qochirimlari, gurunglari shevaga xos bir uslubdir. Chunki, so'zlarning jozibasi, qochirimi, koloritini adabiy tilda tomoshabinga yetkazib bo'lmaydi. Sheva aynan o'z qolipiga tushirib, pesani jonlantiradi, xarakterlarning puxta, jonli chiqishiga yordam beradi» [2, 31] kabi fikrlari yuqoridagi mulohazalarimizni dalillaydi.

*O'n yetti yoshimda sipohiy bo'ldim,
Harb talimining guvohi bo'ldim.
Ot minish, qilich sermash,
Yovni yengmoq hunarin oldim.
Ogoh bo'ldim siyosatu, ne savash,
Vatanni – shul aziz tuproqni sevish,
Ardoqlash hikmatin tuydim yurakdan.
Farahli kunlarga qadam-baqadam,
Musibat yurarkan yonma-yon, hamdam.
Yigirma yoshimda sindi qanotim,
Vabodin ko'z yumdi amakizodam,
Yurak taftin bergan Munis ul otam [1, 85].*

Ogahiyning davriy ketma-ketlikda aks etgan hayot yo'li uning ulg'aygan sari yurt qayg'usi hamda vatanparvarlik tuyg'ulari bilan birga kamol topganini ko'rsatadi. Bunda amakisi Munisning roli beqiyos, albatta. Yaqinlaridan judolikning singan qanotga mengzalishi Ogahiyning ayriliqlardan so'ng qattiq tushkunlikka berilganini ifodalaydi. Dostonda qo'llangan bu kabi o'xshatishlar; “Dunyo ko'zlarimga qorong'u bo'ldi”, “Emishim zaqqum-zahri og'u bo'ldi” singari iboralar asar badiiyatini oshiruvchi qator vositalardan sanaladi.

Munis vafotidan so'ng shoirni xavotirlar girdobida kuzatamiz:

*Emdi ne hol bo'lg'ay “Firdavsul-iqbol”
Ilm maxzanining bitmas davlati –
Odam Atodin to shu kunga qadar
Tavorix ne bo'lg'ay, bitik ne bo'lg'ay,
Itmomig'a kim yetkurur oni,
Chiqarmu yo yana ilm sultoni [1, 85] ?*

Ammo xon hazrat Olloqulixonning buyrug'iga asosan Munisning "Firdavsu-l-iqbol" hamda "Shohid-ul iqbol" asarlariga nuqta qo'yadi.

Musiqiy dostonidagi Sanamjon obrazi sevgi ramzi sifatida hayotbaxsh ruh bag'ishlaydi. Tashxis san'atiga asoslangan "Muhabbat atalmish hukmdor hukmi, Quloq qo'ymas na qilich va na dorga ham" satrlari shoir Ogahiy ham ishqqa asir bo'lganini dalillaydi. Biroq Sanamjonning bevaqt o'limi dostonida fojeiy ruh ko'lamini oshirgan. Shuningdek, dostonida Ogahiy qalamiga mansub asarlar va tarjimalarning xronologik tartibda kelishi o'quvchi ilmiy saviyasini ko'tarishga xizmat qiladi. Qizig'i shundaki, shoir umri davomida sakkiz xon ko'rganligini tilga olib, barisi hukmron bo'lgan yillari yurt obod bo'lganligini alohida ta'kidlaydi:

*Bu sulola tavsifin etib,
Keldim shunday xulosaga ham:
Hukmdor nigohi xuddi shamchiroq,
Oddiy nazarlardan farqli o'laroq,
Juda uzoqlarni ko'rmog'i lozim. [1, 92].*

Yoki:

*Yaxshilik tilasa tangri qay xalqqa
Aning podshosiga bili beradi.
Va ilm ahdiga yuksak martaba
Amrini shohona etib beradi [1, 92].*

Bu satrlar bizga beixtiyor Yu.X.Hojibning "Qutadg'u bilig" dostonidagi "Beklikka loyiq bek qanday bo'lmog'i lozim?" nomli 31-bobini eslatadi. Unga ko'ra, beklikka loyiq bekning birinchi xususiyati u, albatta, bilimli bo'lishi kerakligidir. Binobarin, "Ogahiy" dostonida ham mamlakat sultonining ilmi, ma'rifatli shaxs ekanligiga alohida urg'u qaratilgan. Chunki biz biror o'rinda ham shoir tomonidan xonlarga nisbatan norozilik hislarini tuymaymiz. Aksincha, asar davomida farahbaxsh musiqa qulog'imizda jaranglab, optimistik kayfiyat bag'ishlab turadi.

*Inshoolloh, erklik, hurlik bo'lg'uvsidur yor
Inshoolloh kelar farahbaxsh kunlar.
Yasharsiz hurlikda, dorulomonda,
Bilmayin qayg'u ne baxtli zamonda.
Shunda men faqirni aylarsizlar yod,*

*Ruhim shod etarsiz ey baxtli avlod –
Vakim, men siz bilan boqiydurman,
Sizlarga baxt tilar Ogahiydurman [1, 93]!*

Musiqiy dostonning yakuniy misralaridan anglashiladiki, Ogahiy umrining so'ngiga qadar yurt tinchligi, farovonligi uchun beqiyos hissa qo'shgan, iymonini butun saqlagan va yorug' kelajakka ishongan.

Umuman olganda, Komil Avazning "Ogahiy" musiqiy dostoni janrdagi yangilanishlarni aks ettirishi, novatorona uslubi, ohorli tasvirlari bilan o'ziga xoslik kasb etadi. Asar shu xususiyatlari bilan Xorazm adabiy harakatchiligida yangi bir sahifani ochdi, deyish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Аваз К. Огаҳий. Шарқ юлдузи, 2009. – 83-93 б.
2. Исокова М. Комил Аваз ва "Огаҳий" театри. ЎзДСМИ хабарлари, – 2018/3 (7). – 30-33 б.

OGAHIIY SHE'RIYATIDA AN'ANA VA O'ZIGA XOSLIK

Ozoda TOJIBOYEVA

filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori

ToshDO'TAU

Annoatsiya: *Mazkur maqolada Xorazm adabiy muhitiga Navoiy ijodining ta'siri va Ogahiy she'riyatidagi an'ana va o'ziga xoslik tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *ijodiy ta'sir, tarjima adabiyoti, an'ana, badiiy mahorat, o'ziga xoslik.*

O'zbek adabiyotida Alisher Navoiy ijodiy merosining keyingi davr adabiyotiga ko'rsatgan ta'siri ko'plab tadqiqotlarda yoritilgan. Xonliklar adabiyotiga mansub har bir ijodkor misolida Navoiyga izdoshlik masalasi maxsus tadqiq etilgan va mazkur tizimdagi ishlar tadrijiy davom ettirilishi aniq. Adabiy ta'sir ijtimoiy-madaniy hayotdagi yuksalishlar, ijodga yo'naltiruvchi etakchi omillar bilan bog'liq holda yuzaga chiqadi. Alisher Navoiyning Xorazm adabiy muhitiga ta'siri o'rganilganda, iste'dodli shoirlar qatorida tahlilning avj nuqtasi albatta Ogahiy ijodi bo'lib xizmat qiladi. Bu borada ayni mavzuga bag'ishlangan V.Abdullaevning "Alisher Navoiy traditsiyalarining xorazmlik